

Is gazidan zaharlanmaslik uchun nima qilish kerak

Joriy yilni 15 oktyabr kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining 2 - zalida talaba-yoshlar bilan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda "Hayot faoliyati xafsizligi" kafedrasini o'qituvchisi Mirxalikova Zulfiya Quchqarovna, hamda Xadjaev Aliakbar o'z ma'ruzasini bilan ishtirok etdi. Qish mavsumini yaqinlashgani sari yurtimizning turli hududlarida is gazidan zaharlanish, hattoki, o'lim holatlari ko'payadi. Is gazi nima, undan qanday saqlanish mumkin, qish arafasida xonadonlarda qanday ehtiyot choralarini ko'rilishi kerakligini bo'yicha mutaxassis talabalarga kerakli ma'lumotlar berib o'tdi. Jumladan, gaz plitasidan binoni isitish va uning ustida kiyimlarni quritish, shuningdek, plitani nazoratsiz yoqilgan holatda qolishiga yo'l qo'ymaslik. Bundan tashqari, gaz sizib chiqayotganini ochiq olov, masalan gugurt chaqib tekshirib ko'rish mumkin emasligini to'g'risida ham atroflicha gapirib o'tdi.



Tadbir davomida o'quvchi yoshlarga Is gazi bilan zaharlanishni oldini olish chora-tadbirlari aks ettirilgan videorolik namoyish etilib, ularni qiziqtirgan savollarga mutaxassis tomonidan javob berildi. Shuningdek, tadbirga so'zga chiqqanlar talabalarga eng avvalo uy egasini bilan ijaraga shartnoma qilish lozimligini to'g'risida kerakli, ijarada yashash tartib qoidalari to'g'risida, ijarada yashash manzili bo'yicha mahalla hamda uchaska noziri bilan doimiy aloqada bo'lishlari lozimligini to'g'risida ham batafsil ma'lumotlar berishdi. Tadbir so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislar orqali javob olishdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati